



“ТАСДИҚЛАЙМАН”

Пайарик ТИБ бошлиғи

З.Жозилов

«16» «Ноябрь» 2022 йил

Самарқанд вилояти Пайарик туманининг Пай каналининг ПК225+00, жойлашган “Пой” сув тўсувчи ишоотни таъмирлаш-тиклаш лойиҳасини тайёрлаш обьекти

НУҚСОН ДАЛОЛАТНОМАСИ

10.11.2022 йил.

Пайарик т.

Биз қўйдагилар :

- | | |
|------------------------|--------------|
| 1. ИЧ бўлими бошлиғи: | У.Мусаев |
| 2. Бон гидрометр | Ф. Сатторов |
| 3. Пай канали бошлиғи: | Н. Тўракулов |

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2022 йилда кутилаётган сув танқислиги шароитида қишлоқ хўжалиги экинларини сув билан ишончли таъминлашга қаратилган кечикириб бўлмайдиган чоратадбиrlар тўгрисидаги 2022 йил 10 майдаги 243-сонли қарори ижросини таъминлаш максадида Пайарик туман худудидан ўтувчи хўжаликлараро Пай каналини ПК225+00 да жойлашган “Пой” сув тўсувчи ишоотнинг техник холати ўрганиш чиқилди.

Ўрганишлар жараёнида қўйдагилар аникланди.

Хўжаликлараро Пай каналининг ПК225+00 да жойлашган “Пой” сув тўсувчи ишоотнинг сув ўтказиш кобизияти 18.0 м³/сек. сув тўсувин ишоот 1982 йилда ишга туширилган. Ишоотнинг вазифаси “Пай” насос станцияси учун сувни белгилантан мёёрий сатҳда унлаб туришдан иборат. “Пай” насосстанцияси тумандаги 2500 гектар экин майдонини сугориш учун хизмат қилади.

Пай каналининг ПК225+00 да жойлашган “Пой” сув тўсувчи ишоотнинг холати ўрганилганда ишоотнинг ўзанида чукурлиги 50-60 см бўлган чукурчалар хосил бўлган, ён кияликлари емирилиб бетон катлами кўчган ва ишоотнинг затвор, винт ва подёмникларини янгисига (2 дона 5-ЭВ. ва 2 дона 2.5-В.) алмаштириш зарур

Юкорида кўрсатилган сув тўсувчи ишоот тамирланса “Пай” насос станциясига болганинг 2500 гектар, “Сувчи” насосстанциясига болганинг 350 гектар, “Ўн

киргок" каналига болганган 500 гектар, Чап киргок" каналига болганган 1650 гектар жами 2500 гектар экин маидоннинг сув таъминоти яхшиланадй.

Ушбу сув тўсувчи ишоотни таъмирлаш учун 23.0 м3 бетон, ер ишлари ва бошка иншари бажариш талаб этилади.. Бу тадбирларни бажариш учун талаб этиладиган таҳминий маблаг 100.0 млн. сўмни ташкил килади.

ИЧ бўлим бошлиғи:

Бош гидрометр

Пай канали бошлиғи:

У.Мусаев

Ф . Сатторов

Н . Тўракулов

Самарқанд вилояті

703003, Samarqand shahri, Ko'ksaroy maydoni-1 "D" bino 2-qavat, Tel:(66) 233-03-89, 233-05-53, E-mail: sam.expert@bk.ru, www.ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: ILMURATOV SHOKIR MARDIYEVICH

Sana:04-11-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 68549

Obyekt nomi «Samarqand viloyati Payariq tumanidagi «Qora» kanali uchastkalarini betonlashtirish ishiari»

Buyurtmachi - Payariq tuman irrigatsiya bo'limi

Bosh loyihachi - "MARJONA ZAMIN PROEKT" MChj.

Litsenziya AL-000102 sonli 18-07-2019 yil.

Moliyalashtirish manbai - Buyudjet.

Bosh pudratchi - Tender asosida

Qurilish turi Joriy ta`mirlash.

Murojaat raqami: № 62178

1. Loyihalash uchun asos

1.1. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022 yilda kutilayotgan suv tanqisligi sharoitida qishloq xo'jaligi ekinlarini suv bilan ishonchli ta'minlashga qaratilgan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'grisida"gi 2022 yil 10 maydag'i 243-sonli qarori.

1.2. Payariq tuman irrigatsiya bo'limi tomonidan berilgan texnik topshiriq.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Kitob 1 - Umumiy tushuntirish xati.

2.2. Kitob 2 - Qurilish ishlarini tashkil etish (POS).

2.3. Albom 1 - Chizmalar kanalning bo`ylama va ko`ndalang kesim yuzalari (AS).

2.4. Kitob 3 - Joriy narxlarda resurslar smetasi. Ish hajmlari ro'yxati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Loyiha maqsadi:

Samarqand viloyati Payariq tumanining 2870 hektar ekin maydoniga suv yetkazib beruvchi «Kora» kanalini uchastkalarini otkoslari va beton yoriqlarini qisman betonlashtirish bilan kanalning texnik parametrlarini yangilash va vegetasiya mavsumida ekin maydonlariga o'z vaqida suv yetkazib berish.

O'r ganilgan massivlar; Samarqand shahrining g'arbiy qismida 38-40 km masofada joylashgan.

Betonlashtirish ishlariga kiritilgan kanal ma'muriy jihatdan Payariq tumani hududida joylashgan va Payariq" tuman irrigasiya bulimi balansida turadi. Geomorfologik jihatdan massiv prolyuvial tekislikda joylashgan. Uchastkaning yuzasi qiyaligi 0.004. Umumiy qiyalik shimol tomoniga 0.003-0.004 yunalgan.

qo'shimchalar kiritildi:

- qabul qilingan standartlar SHNQga muvofiq tuzatildi;
- aniqlangan resurs ko'rsatgichlari mash/soat mexnat xarajatlari odam/soat;
- qurilish materialari va jixozlarga bo'lgan extiyojini aniqladi;
- materiallarni tashish narxiga aniqlik kiritildi;

-Pudratchining boshqa xarajatlari ko'rsatilgan;

Ob'yektning amaldagi shartnomalarida e'lon qilingan smeta qiymati 364 340,93 ming sum, bajarilgan ishlari xajmi va xarajatlarini aniqlashtirish hisobiga 39 114,980 ming sumga kamaytirilib, QQS bilan va boshqa xarajatlarsiz 325 725,950 ming sumni tashkil etdi. Shu jumladan:

Jixozlar, mebel va inventar -;

Qurilish materialari va konstruksiyalari - 189 261,624 ming sum;

Ish haqi, ijtimoiy suq'urtani xisobqa olgan xolda 12 % - 40 077,795 ming sum

Mashina va mexanizmlar - 9 725,760 ming sum;

Pudratchining boshqa xarajatlari 13,11 % - 43 294,704 ming sum;

Sug'urta xarajatlari - 903,552 ming sum;

QQS 15 % - 42 489,516 ming sum;

Bundan tashqari:

-Buyurtmachining boshqa xarajatlari - 15 135,0 ming sum; (ekspertizada xisobga olinmagan)

6.3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.01.2016 yildagi qaroriga asosan №15 - II bob, 8- band : Davlat ekspertizaga taqdim etilgan shaxarozlik xujjalarning sifati uchun javobgarlik buyurtmachi (loyixalash jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarni ishonchligi nuqtai nazardan) va ishlab chiquvchi (loyihalash shartlari bo'yicha) zimmasiga yuklanadi. Qabul qilingan dizayn qarorlari

6.4. Ta'kidlanishicha loyiha tashkiloti ekspertizadan o'tish uchun taqdim etilgan ishchi loyihaning smeta xujjalarda loyiha va ish xajmini muvofiqli uchun javobgardir.

6.5. Loyiha mualliflariga ekspertiza sharxlari asosida tuzilgan chizmalar va xarajatlar smetasini buyurtmachiga topshirish

6.6. Eskipt xulosasining amal qilish muddati - 2 yil.

7. Xulosalar.

7.1. Ishchi loyiha: «Samarqand viloyati Payariq tumanidagi «Qora» kanali uchastkalarini betonlashtirish ishlari.» ishchi loyihasi ekspertiza natijalari va mazkur xulosasining 6.3, 6.4 va 6.5 bandlari bo'yicha muloxazalar xisobiga olingan xolda qushimcha ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.03 yildagi qaroriga muvofiqligi uchun 261 son 03.07.2003 yildagi 302 son va SHNQ 4.01.16.-09 uchun qurilish qiymati tavsiya etiladi va ish shartnomasini tuzish uchun asos bula olmaydi, qurilish qiymatini qabul qilish to'g'risidagi yakuniy qaror tanlov asosida buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh mutaxassis: Abdiyev Mirzabek Saitmurodovich

«ТАСДИҚЛАЙМАН»

Пайарик туманиннің иригация

булими бешшісі

«10» Ноябрь 2022-йил



**Пайарик туманинде Пайарик туманинде Кора арик каналини откослари
ва бетон ёрікларини бетонлаштириш учун хизматларини курсатувчи
ташкilotни аниклаш буйича**

ЭНГ ЯХШИ ТАКЛИФ ҲУЖЖАТИ

Самарқанд 2022-йил

МУНДАРИЖА

- I Боб. Қатнашчига күрсатма
- II Боб. Танловнинг таклиф шакллари
- III Боб. Етказиб бериладиган маҳсулотлар(хизматлар)га нарх ва техник талаблар
- IV Боб. Тижорат қисми
- V Боб. Шартнома шакли

І БОБ. ҚАТНАШЧИГА КҮРСАТМА

A. Умумий маълумот

Танлов предмети
Мазкур танлов хужжатларида ишлатиладиган тушунчалар
Танлов комиссиясининг вазифалари
Техник ва тижорат таклифларини баҳолаш гурухининг вазифалари
Қатнашчига танловда катнашиш учун қўйиладиган малака талаблари
Танлов доирасида хужжатларнинг маҳфилигини таъминлаш

B. Танлов хужжатлари

Танлов хужжатининг таркиби
Танлов хужжатларига аниқлик киритиш
Танлов хужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш

C. Танлов хужжатларини тайёрланиши

Танловда катнашиш харажатлари
Танловда қўлланиладиган тил
Танлов таклифини ташкил килувчи хужжатлар
Таклиф шакли ва нарҳ жадвали шакллари бўйича тушунтириш
Муқобил таклифлар
Танлов таклифини расмийлаштириш ва имзолаш

D. Танлов таклифининг топширилиши ва очилиши

Танлов таклифларини мухрлаш ва конвертларни белгилаш
Танлов таклифларини топширишнинг охирги муддати
Танлов таклифларининг очилиши

E. Танлов таклифларини баҳолаш ва ғолибларни аниқлаш тартиби

Танлов таклифларини баҳолаш ва ғолибларни аниқлаш
Таклифларнинг мос келмаслиги

F. Шартномани расмийлаштириш

Шартномани расмийлаштириш
Тўлов шартлари
Шартномани имзолаш

A. УМУМИЙ МАЪЛУМОТЛАР

1. Танлов предмети

Танлов комиссияси ўз фаолиятини Ўзбекистон Республикасининг “Давлат харидлари тўғрисида”ги Конуни ва Харид килиш тартиб-таомилларини ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низом (рўйхат рақами 3016, 26.05.2018 й.) асосан амалга оширади.

Танловни ташкил қилишнинг асосий мақсадлари қўйидагилар:

Танловни ўтказиш очик турда бўлиб,

учун ташкилотни аниқлаш бўйича танлов

ўтказиш кўзда тутилган.

Тўпламлар сони: 10 кун давомида

Хизматларнинг максимал нархи: сўм.

Танловга кўйилган товарнинг (хизматнинг, ишнинг) нархи кўшимча қиймат солиги билан.

Ишлар танлов хужжатларининг тижорат қисмида жойлашган талабларига биноан бажарилиши лозим.

Хизмат кўрсатиш муддати: 10 кун.

2. Мазкур танлов хужжатларида ишлатиладиган тушунчалар

Бюджет маблағлари хисобидан мақсадлари қўйидагилар:

Танловни ўтказиш очик турда бўлиб,

учун ташкилотни аниқлаш бўйича Танлов

(кейиниги ўриниларда Танлов) ўтказишдан мақсад мазкур Танлов хужжатлари талаблари асосида тизимни яратиб берувчи ташкилотни аниқлаш.

Танлов ўтказиш тартиби – бир боскичли.

Буюртмачи –

3. Танлов комиссиясининг вазифалари:

-танлов ўтказиш тартиб-қоидаларини белгилайди;

-белгиланган тартибда танловни ўтказади;

-танлов талабгорларига тааллуқли барча хужжатларни тақдим қилиш, муддатини узайтириш тўғрисида қарор кабул қилиш;

-танлов бўйича келиб тушган таклифларни очиш санасини белгилаш;

-таклифлар билдирилган конвертларни очади, уларнинг танлов хужжатлари билан белгиланган талабларга (тақдим этилган хужжатларнинг тўлиқлиги, уларнинг расмийлаштирилиши ва ҳоказ) мувофиқлигини текширади;

- талабгорлар томонидан тақдим этилган таклифларини кўриб чикишда нархларнинг сунъий равишда оширилишини олдини олиш ва холисликка ҳамда қонун хужжатлари талабларига қатъий риоя қилиш;

- зарур холларда комиссия фаолиятига мутахассис ходимлар жалб этилишини назарда тутиш;

- ғолиб деб топилган талабгорлар билан шартнома имзолаш бўйича таклиф беради.

Танловнинг ташкилотчиси - Ишчи гурух. Унинг вазифасига қўйидагилар киради:

- танлов хужжатлари ишлаб чиқилишини таъминлайди ва уларни ўрнатилган тартибда талабгорларга тақдим этади;

- танлов ўтказилиши тўғрисида республика товар хом ашё биржасининг порталида эълон беради;

- танлов таклифларини баҳолаш мезонлари ишлаб чиқилишини таъминлайди.

4. Техник ва тижорат таклифларни баҳолашда танлов комиссиясининг вазифалари:

- катнашчиларнинг танловга тақдим этилган молиявий хужжатларини ва нарх таклифларини ўрганади, таҳлил килади ва кўриб чиқади;

- энг яхши танлов нарх таклифини аниклайди, голибни аниклайди ва карор кабул килади.

Катнашчи - мулкчилик шаклидан катъий назар, танлов талабларида кўрсатилган товарларни етказиб бериш ва хизматларни кўрсатиш бўйича тажрибага эга бўлган ташкилотлар.

Катнашчи:

- тақдим этилган маълумотлар ва хужжатларнинг ҳакиқийлиги ва тўғрилиги учун жавобгарликни ўз зиммасига олади;

- факат битта таклифни тақдим этиш хукуқига эга;

- тақдим этилган таклифни тақдим этиш муддати тугамагунча қайтариб олиш ёки ўзгаришиш хукуқига эга.

5. Катнашчига танловда катнашиш учун қўйиладиган малака талаблари

Танлов таклифларини тайёрлайди ва танлов комиссиясига тақдим этади. Уларнинг фаолиятини баҳолаш учун зарур бўлган қўшимча ахборотни тақдим этади (Танлов комиссиясининг сўровига кўра).

5.1. Танлов катнашчиларини малакали танлови Танлов комиссияси томонидан амалга оширилади.

Танлов катнашчилари куйидаги хужжатлар ёрдамида малакали танланади:

- Корхона ва ташкилотларининг кичик ёки йирик бизнес субъектларига тегишлилиги тўғрисидага маълумотнома;

- юридик шахс сифатида давлат рўйхатидан ўтганлигини тасдиқловчи гувоҳноманинг нусхаси;

Давлат ташкилотлари томонидан саралаш босқичига тақдим этиш учун берилган ҳар бир маълумотномада талабгорнинг СТИРи кўрсатилган бўлиши ва танлов эълон қилингандан сўнг олинган бўлиши шарт.

5.2. Малакали танловдан ўтган катнашчи танлов комиссиясига (муҳрланган) ва ички муҳрланган конвертни йўлланма хат билан тақдим килган бўлишлари керак. Конвертда талабгор номи, манзили ва Танлов комиссияси манзили, номи ҳамда иштирок этаётган пот рақами кўрсатилган бўлиб, куйидаги хужжатлар бўлиши лозим:

- катнашчининг ташкилий шакли (1-шакл);

- катнашчи тўғрисида умумий маълумот (2-шакл);

- катнашчининг тажрибалари тўғрисида маълумот (3-шакл);

- маҳсулотнинг ва хизматнинг техник тавсиф жадвали (4-шакл);

- маҳсулотни етказиб бериш, хизматларни кўрсатиш жадвали асли (5-шакл);

- танлов таклифи асли (6-шакл);

- маҳсулот, хизмат учун таклиф килинаётган нарх асли (7-шакл);

5.3. Катнашчи танлов таклифларини тайёрлаш ва тақдим этиш давомида сарфланган барча молиявий харажатларни ўз хисобидан коплайди.

5.4. Танловда голиб чиқкан тақдирда буюртмачи билан шартнома тузади.

Танлов ғолиби – таклифларни баҳолаш якунлари бўйича танловда энг паст нарх тақлиф килган танлов катнашчиси.

Захирадаги катнашчи – танлов ғолибидан кейинги ўринда турган паст нарх тақлиф килган катнашчи.

5.5. Танловга куйидаги катнашчилар қўйилмайди:

- шартномани бажариш учун зарур техникавий, молиявий, моддий, кадрлар ресурсларининг ҳамда бошқа ресурслари мавжуд бўлмаган;

- шартнома тузиш учун конуний ҳукуққа эга бўлмаган;

- инсофсиз ижрочиларнинг ягона рўйхатида бўлган;

- имтиёзли солик режимини таъминлайдиган ва/ёки молиявий операцияларни (оффшор зоналар) амалга оширишда маълумотни ошкор килиш ва тақлим этишини назарла тутмайлиган худудларда рўйхатдан ўтган ва банк хисоб ракамларига эга бўлган;

- аввал имзолантган шартномалар бўйича келишилган мажбуриятларни ўз муддатида бажармаган;

Буюртмачи куйидаги ҳолларда иштирокчани харид тартиб-таомилларида катнашишдан четлаштиради, агар:

- иштирокчи бевосита ёки билвосита мижознинг хар қандай амалдаги ёки собик мансабдор шахсини ёки ходимиини ёки бошқа давлат органининг хар қандай шаклда маблаг, иш таклифини ёки бошқа хар қандай қимматбаҳо буюмларни ёки хизматларни таклиф килиши, бериши ёки беришга рози бўлганлиги - ёки харидорнинг давлат харидлари жараёнида харакатлари юзасидан карор қабул килиши ёки хар қандай ракобат тартибини кўллаши;

- иштирокчи конунга хилоф равишда адолатсиз рақобат устунилиги ёки манфаатлар тўқнашувига эга бўлса.

6. Танлов доирасида хужжатларнинг маҳфийлигини таъминлаш

6.1. Тушган таклифларнинг кўриб чикилиши, уларнинг танлов комиссияси аъзолари томонидан баҳоланиши тўғрисидаги ахборот маҳфий хисобланади ҳамда танлов тартиб-кондасига расман алекадор бўлмаган шахсларга маълум килинмайди. Танлов комиссияси аъзолари мазкур ахборот ошкор килингандиги учун конун хужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

Б. ТАНЛОВ ҲУЖЖАТЛАРИ

7. Танлов ҳужжатининг таркиби

7.1. Танлов катнашчиси унга берилган танлов ҳужжатини ва шу билан бирга барча кўрсатмалар, шакллар, шартлар ва техник тафсилотларни тўлиқ ўрганиб чикиши шарт.

7.2. Танлов ҳужжатларида кўрсатиб ўтилган барча талаб килингандиги маълумотларни бермаслик ёки таклифнинг танлов ҳужжатлари талабларига тўлиқ тўғри келмаслиги, таклифнинг қабул килинмаслигига олиб келади.

8. Танлов ҳужжатларига аниқлик киритиш

8.1. Ҳужжатларни тақдим этиш муддати тамом бўлгунга кадар Катнашчи танлов ҳужжатларига қандайдир аниқлик киритиш учун танлов комиссиясига ёзма равишда мурожаат килишлари мумкин:

8.2. Танлов комиссияси талабгорни сўровнига кўра Танлов таклифларини тақдим этишининг сўнгги муддатидан камида 3 кун олдин сўров манбасини кўрсатмаган холда танловнинг барча катнашчиларига мажбурий тартибда жавоб юбориб, танлов ҳужжатларининг мөхияти ёки мағмуни билан боғлик саволга ёзма жавоб берипши шарт.

9. Танлов ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш

9.1. Таклифларни тақдим этиш муддати тамом бўлгунга кадар камида 3 кун олдин танлов комиссиясининг комиссия карорига мувофик талабгорларга маълум килиб, таклифга тузатиш киритиш учун етарли бўлган вакт берган холда, унинг муддатини узайтириб, танлов ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритишга хаклиди.

В. ТАНЛОВ ҲУЖЖАТЛАРИНИ ТАЙЁРЛАНИШИ

10. Танловда катнашиш харажатлари

10.1. Танловда иштирок этиш ва танлов ҳужжатини тайёрлаш билан боғлик бўлган барча харажатлар катнашчининг маблаглари хисобидан амалга оширилади.

10.2. Нарх таклифида кўрсатилган нарх танлов таклифи нархи хисобланади.

10.3. Танлов таклифи нархи миллий валюта - сўмда тўланиши лозим.

10.4. Махсулот (хизмат, иш) нархи(таклиф)га барча ҳаражатлар. яъни солик ҳамда бюджет ва бюджетдан ташкари жамгармаларга мажбурий тўловлар киритилади.

10.5. Қатнашчи томонидан белгиланган нархлар маҳсулотни етказиб бериш (хизматларни кўрсатиш) мажбуриятларини охирига етказилмагунга калар ўзгартирилмайли (танлов комиссиясининг нархларни тушириш бўйича музокаралар олиб бориш натижасида ўзгартиришлар киритилиши мумкин).

10.6. Нархларнинг ошишига караб ўзгартириладиган нархларни кўзда тутувчи танлов таклифлари исталган босқичда, танлов талабларига жавоб бермайди деб каралади ва танлов комиссияси томонидан кўриб чикилиши рад этилади.

11. Танловда кўлланиладиган тил

11.1. Қатнашчилар томонидан берилаётган таклифлар, Буюртмачи ва қатнашчи ўртасидаги хатлар ва барча тегишли хужжатлар ўзбек тилида тайёрланади.

12. Танлов таклифини ташкил килувчи хужжатлар

12.1. Танлов таклифлари бир асл иусхадан, факат муҳрланган конвертда бўлиши лозим. Танлов комиссияси номини ва манзили кўрсатилган конвертда **5.2-бандда** келтирилган хужжатлар, йўлланма хат билан биргаликда кабул килинади.

Конвертнинг юза кисмида иштирокчининг номи, боғланиш учун телефон рақамлари, юридик манзили ва танлов номи ва лоти кўрсатилади.

12.2. Танлов комиссияси лозим бўлганда Танлов катнашчиларидан тақдим этилган Танлов таклифларини тасдиқлаш учун кўшимча ёки бошқа маълумотларни талаб қилиши мумкин.

13. Таклиф шакли ва нарх жадвали шакллари бўйича тушунтириш

13.1. Қатнашчи танлов таклифини катъий равишда мазкур танлов хужжатининг II бобидаги шакллар асосида тақдим этиши лозим.

13.2. Танлов таклифи шаклларидаги барча бўш графалар танлов хужжатлари талаблари асосида тўлдирилиши зарур.

13.3. Қатнашчи таклиф этилаётган маҳсулот (хизмат) учун нарх таклифини танлов таклифи шакли асосида тақдим этиши лозим.

14. Муқобил таклифлари

14.1. Паст техник (функционал) кўрсаткичларга эга бўлган маҳсулот (хизмат) кўринишида берилган танлов таклифлари кўриб чикилмайди.

15. Танлов таклифларини расмийлаштириш ва имзолаш

15.1. Танловда иштирок этиш учун қатнашчи танлов хужжатларини имзолаш ваколати бор бўлган ўзининг вакилини тайинлаши мумкин. Вакил томонидан имзолаш учун қатнашчи ўз вакилига тегишли ишонч хати бериши лозим, ишонч хати ташкилотнинг ваколатга эга шахси томонидан имзоланган ва муҳрланган бўлиши керак.

Танлов иштирокчиларининг таклифлари ип билан тикилган, рақамланган, муҳр қўйилган ва иштирокчининг ваколатли шахсининг имзоси билан тасдиқланган ёки таклифларнинг ҳар бир вараги имзоланган ҳолда тақдим этиш тавсия этилади.

15.2. Берилган таклифларда ёзув қаторлари орасига қўшиб ёзиш учун жой ташланиши ёки ўчириш холатлари мавжуд бўлса, бу таклиф ўз кучини йўқотади ва рад этилади.

15.3. Танлов қатнашчисининг имзоланмаган, елимланмаган ва муҳрланмаган конвертлари кўриб чиқилмайди ва Танлов комиссияси томонидан рад этилади.

Г. ТАНЛОВ ТАКЛИФИНИНГ ТОПШИРИЛИШИ ВА ОЧИЛИШИ

16. Танлов таклифларини муҳрлаш ва конвертларни белгилаш

16.1. Танлов қатнашчиси танлов таклифларини мазкур танлов хужжатлари талабларига катъий риоя килган ҳолда муҳрлаши керак.

16.2. Қатнашчининг танлов таклифи, танлов очилган кундан бошлаб 30 (үттиз) кун мобайнида ўз кучини сақлаши лозим.

16.3. Айрим ҳолларда танлов комиссияси танлов қатнашчисидан таклифнинг амалда

бўлиш муддатини узайтиришни сўраши мумкин. Бу сўров ва жавоб хат (телеграмма) кўрининишила расмийлаптирилади.

17. Танлов тақлифларини топширишнинг охирги муддати

17.1. Қатнашчиларнинг танлов тақлифлари <https://etender.uzex.uz> электрон савдо платформасида эълон берилган кундан бошлаб 10 календарь кундан кечикмасдан танлов комиссиясига топшириллади (**шанба, якшанба дам олиш куни этиб белгиланади**).

17.2. Танлов тақлифларини топширишнинг охирги муддати ҳеч кандай шароитда кўчирилмайди (9.1-бандида эслатилган тасодифий ҳолатлардан ташқари).

17.3. Танлов тақлифларини топширишнинг охирги муддатига 3 кун қолгунга кадар танлов қатнашчиси ўз тақлифларини қайтариб олиши ёки тақлифга ўзгартириш киритиши мумкин.

17.4. Танлов қатнашчиси томонидан танлов хужжатларида талаб этилган маълумотлар тўлиқ тақдим этилмаслиги ёки мазкур танлов хужжатлари талабларига жавоб бермайдиган тақлифлар (конвертларнинг ёпиштирилмасдан берилиши, шаклларнинг нотўғри тўлдирилиши, талаб қилинган хужжатларни тақдим этмаслик ва ҳ.к) кўриб чиқилмайди ва рад этилади.

18. Танлов тақлифларининг очиллиши

18.1. Танлов тақлифлари беришнинг белгиланган муддати тамом бўлгач белгиланган кундан 10 кундан кўп бўлмаган муддатда танлов комиссияси танлов тақлифлари берилган конвертни очади.

Тақлифлар билдирилган конвертлар, қатнашчилар ёки уларнинг тўлақонли вакиллари иштироқида очиллади. Қатнашчилар вакиллари қатнашмаганлиги конвертнинг очилмаслигига ёки мазкур жараённинг қайта ўтказилишига асос бўла олмайди.

18.2. Конверт очилгандан кейин танлов қатнашчилари танлов комиссияси томонидан эътироф этилган ташкилотлар санаб ўтилади, танлов хужжатларининг талабларга мослиги ва шартларнинг тўлақонли бажарилиши текширилади.

18.3. Хужжатлар пакетида танлов хужжатларига қўйилладиган талаблар бузилганилиги аниқланган тақдирда, хужжатлар уларнинг мазмуни эълон қилинмасдан қатнашчига қайтарилади.

18.4. Танлов комиссияси мажлисининг натижалари баённома билан расмийлаштирилади. Баённомада танлов қатнашчилари томонидан эътироф этилган ташкилотлар санаб ўтилади. Шакл бўйича тақдим этилмаган ва танловга қўйилмаган тақлифлар, баённомада улар рад этилишининг сабаблари кўрсатилган ҳолда алоҳида санаб ўтилади.

18.5. Танлов тақлифлари билдирилган конвертларни очиш ва ғолибни аниқлаш тўғрисидаги баённома оммавий ахборот воситаларида эълон қилинмайди.

Д. ТАНЛОВ ТАҚЛИФЛАРИНИ БАҲОЛАШ ВА ҒОЛИБЛАРНИ АНИҚЛАШ ТАРТИБИ

19. Танлов тақлифларини баҳолаш ва ғолибларни аниқлаш

19.1. Танлов комиссияси танлов тақлифларини техник, ташкилий-молиявий ва тижорат жихатдан баҳолаш танлов комиссияси аъзолари томонидан амалга оширилади.

19.2. Танлов тақлифларини баҳолаш икки босқичдан иборат:

- техник, ташкилий-молиявий;
- тижорат.

19.2.1. Танлов тақлифларини баҳолаш вақтида Танлов комиссияси танлов қатнашчисидан унинг танлов тақлифлари борасида тушунтиришлар беришини сўраши мумкин.

19.2.2. Қатнашчиларнинг тижорат тақлифларини барча учун тенг шартлар асосида ўтказиш мақсадида уларнинг танлов тақлифларини баҳолашда, сифатли маҳсулот етказиб беришдан (хизмат кўрсатишдан, иш бажаришдан) иборат бўлган танлов тақлифлари бўйича конунчилик асосида кўшимча қўшилган қиймат солиғи тўловчилари томонидан солик суммаси киритиб хисоб қўлиниади.

19.3. Танлов қатнашчиларининг тақлифларини молиявий баҳолаш, тижорат тақлифларни

баҳолаш мезони асосида аниқланади.

19.4. Танлов таклифларини қараб чикиш мулдати 10 кундан ошмайди.

19.5. Энг паст нарх таклиф қилган қатнашчи ғолиб деб ҳисобланади.

19.6. Якун чиқариш ва танловнинг ғолиби тўғрисидаги қарор танлов комиссияси томонидан қабул килинади. Ғолибни танлашда Танлов комиссияси аъзоларининг якка тартибдаги хуносасига асосланилади. Қарор танлов комиссияси аъзолари умумий сонининг оддий, кўпчилик овози билан қабул килинади. Танлов комиссияси раисининг овози ҳисобга олинмайди факат имзоси билан комиссия аъзолари карорини тасдиқлаб беради.

19.7. Танлов комиссияси танлов хужжатлари шартларига мос келмайдиган ҳар қандай танлов таклифларини қабул килиш ёки рад этиш хукукини ўзида олиб қолади.

19.8. Танлов комиссиясининг сўровларига жавоб бера олмайдиган қатнашчилар томонидан тақдим этилган (берилган) ҳар қандай тушунтиришлар кўриб чиқилмайди.

Баённома йиғилишда иштирок этган аъзолар томонидан имзоланиши ва танлов комиссияси раиси томонидан тасдиқланиши керак.

19.9. Танлов ташкилотчиси танлов ғолибига танлов якунлангандан кейин уч кундан кечикмай билдиришнома беради ва якунларини Республика товар-хом ашё биржасининг etender.uzex.uz маҳсус порталида эълон қиласди.

20. Таклифларнинг мос келмаслиги

20.1. Танлов хужжатларини текшириш чогида аниқланган арифметик хатолар мавжуд бўлган тақдирда танлов комиссияси:

қатнашчига танлов таклифига тузатиш киритиш имкониятини бериши;

таклифларни баҳолашда, товар (хизмат, иш) нархи билан бирлик нархи ва сонини кўпайтириш натижасида олинган якуний нарх ўртасида номувофиқлик мавжуд бўлса, товар (хизмат, иш) нархи устушилик қиласидиган, умумий нархга тузатиш киритиладиган қарор қабул килиши мумкин. Агар сўзлар билан ёзилган сумма (нарх) билан ракамда кўрсатилган сумма (нарх) ўртасида номувофиқлик мавжуд бўлса, у холда сўзлар билан ёзилган сумма (нарх) устунлик қиласди.

20.2. Агарда қатнашчи хатоларни тўғрилашдан бош тортса, унинг танлов таклифи танлов комиссиясининг қарори билан четлаштирилади.

20.3. Танловда иштирок этиш учун қатнашчи хукуки бошқа юридик шахсга ўтказилишига йўл кўйилмайди.

20.4. Танлов куйидаги холларда бўлиб ўтмаган деб эълон қилинади:

тегишли лот бўйича танлов таклифларини тақдим этишнинг энг охирги муддатигача таклиф тушмаса ёки факат битта таклиф тушса;

барча танлов таклифлари танлов хужжатларига кўйиладиган талабларга мувофик бўлмаса;

барча танлов таклифларида танлов хужжатлари шартлари билан талаб қилинадиган хужжатлар мавжуд бўлмаса;

барча катнапчиларнинг таклиф этган нархлари товарнинг бошлангич кийматидан анча юкори бўлса.

20.5 Танловнинг бўлиб ўтмаган, деб эълон қилиниши танлов қатнашчиларидан бирон-бирининг мулкий ёки бошқа жавобгарлигига олиб келмайди.

1. Танлов

Е. ШАРТНОМАНИ РАСМИЙЛАШТИРИШ

21. Шартномани расмийлаштириш

21.1. Буюрмачи ва танлов ғолиблари ўртасида и шартнома танлов ғолиблари тўғрисида Республика товар-хом ашё биржасининг <https://etender.uzex.uz/> маҳсус порталида эълон қилинган кундан бошлаб уч кун муддат ичидаги тузилади.

21.2. Агар Танлов ғолиби шартнома тузишни рал ёки белгиланган муддатда шартномани бажариш учун кафолат бермаса, у холда Буюртмачи танлов комиссияси карорига мувофик кейинги энг кўп баллга эга бўлган заҳирадаги қатнашчини танлов ғолиби деб эътироф этиши ёки тақорий танлов ўтказишни тайинлаши мумкин.

22. Шартномани имзолаш

22.1. Голиб катнашчи 3 (уч) кун мудлат ичиле Буюртмачи билан шартнома имзолаши шарт.

22.2. Голиб деб топилган катнашчи шартномани бажарыш кафолатини мүддатда бёра олмаса кейинги энг кўп балл тўплаган захирадаги катнашчи билан шартнома имзоланади.

23.3. Таилов голиби микдор, сифат хамда техник кўрсаткичлари бўйича шартнома талабларини бажармаса конун доирасида (ёки шартнома талабларига асосан) жавобгарликка тортилади.

ООО «MARJONA ZAMIN PROEKT»

РАБОЧИЙ ПРОЕКТ

«Самарканд вилояти Пайарик туманидаги «Кора»
канали участкаларини бетонлаштириш ишлари»

КНИГА 2

СМЕТА

Директор

ГИП



М.Расурова

А.Туракулов

Самарканд – 2022

СТАРТОВАЯ СТОИМОСТЬ СТРОИТЕЛЬСТВА

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2022 йилда кутилаётган сув танкислиги шароитида кишлок хужалиги экинларини сув билан ишончли таъминлашга каратилган кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўгрисидаги 2022 йил 10 майдаги 243-сонли қарори ижросини таъминлаш максадида Самарканд вилояти Пайарик туманидаги «Кора» канали участкаларини бетонлаштириш ишлари.

СОСТАВЛЕН В ТЕКУЩИХ ЦЕНАХ

№ № ПП	НАИМЕНОВАНИЕ ЗАТРАТ	СТОИМОСТЬ (тыс.сум)
1	2	3
1	ЗАТРАТЫ НА ОСНОВНУЮ ЗАРАБОТНУЮ ПЛАТУ С УЧЕТОМ НАЧИСЛЕНИЙ НА СОЦИАЛЬНОЕ СТРАХОВАНИЕ	40 077,795
2	ЗАТРАТЫ НА ЭКСПЛУАТАЦИЮ МАШИН И МЕХАНИЗМОВ	9 725,760
3	ЗАТРАТЫ НА СТРОИТЕЛЬНЫЕ МАТЕРИАЛЫ, ИЗДЕЛИЯ И КОНСТРУКЦИИ	189 261,624
4	ОБОРУДОВАНИЕ	0,000
5	<u>ИТОГО ПРЯМЫЕ ЗАТРАТЫ С ТРАНСПОРТНЫМИ И ЗАГОТОВИТЕЛЬНО-СКЛАДСКИМИ РАСХОДАМИ</u>	239 065,178
6	ПРОЧИЕ ПРОИЗВОДСТВЕННЫЕ ЗАТРАТЫ	
7	ПРОЧИЕ ЗАТРАТЫ И РАСХОДЫ ПОДРЯДЧИКА - 18,11%	43 294,704
8	ЗАТРАТЫ НА СТРАХОВАНИЕ ОБЪЕКТОВ НА ПЕРИОД СТРОИТЕЛЬСТВА	903,552
9	КОЭФФИЦИЕНТ ПРОГНОЗИРУЕМОГО РИСКА РОСТА ЦЕН	
10	СТОИМОСТЬ СМР (с учетом коэффициента риска и страхования строительства)	283 263,434
11	ИТОГО СТОИМОСТЬ С НДС 15%	325 752,95
12	ПРОЧИЕ ЗАТРАТЫ ЗАКАЗЧИКА (в том числе)	15 135,000
	ПИР	14 100,000
	Экспертиза ПСД	1 035,000
13	ВСЕГО:	340 887,949

Директор

ГИП



М. Расулова

А. Туракулов

ОБЪЕКТНАЯ СМЕТА №1

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2022 йилда кутилаётган сув танкислиги шароитида кишлоп хужалиги экинларини сув билан ишончли тъминлашга каратилган кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўгрисидаги 2022 йил 10 майдаги 243-сонли қарори ижросини тъминлаш максадида Самарканд вилояти Пайарик туманинда «Кора» канали участкаларини бетонластириш ишлари.

СМЕТНАЯ СТОИМОСТЬ	239 065,178	ТЫС.СУМ
ЗАТРАТЫ ТРУДА РАБОЧИХ-СТРОИТЕЛЕЙ	2 153,595	Ч-ЧАС.

СОСТАВЛЕНА В ТЕКУЩИХ ЦЕНАХ

№ п.п.	№ смет	Наименование работ и затрат	Сметная стоимость тыс.сум					Затраты труда рабочих- строителей	Возвратны х сумм тыс.сум
			Зарплата	Экспл.машин	Материалы	Оборудова- ние	Всего		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	1-22-1	БЕТОНИРОВАНИЕ КАНЛАДА "КОРА"-2400 м	40 077,795	9 725,760	189 261,624		239 065,178	2 153,59	0,000
		ВСЕГО ПО СМЕТЕ	40 077,795	9 725,760	189 261,624	0,000	239 065,178	2 153,595	
		ВОЗВРАТ			0,000	0,000	0,000	0,000	0,000

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2022 йилда кутилаётган сув танкислиги шароитида
кишлек хужалиги экинларини сув билан ишончли таъминлашга каратилган кечиктириб бўлмайдиган чора-
тадибрлар тўгрисидаги 2022 йил 10 майдаги 243-сонли қарори ижросини таъминлаш максадида Самарканд
вилояти Пайарик туманинаги «Кора» канали участкаларини бетонлаштириш ишлари.

(наименование стройки)

ЛОКАЛЬНЫЙ РЕСУРСНЫЙ СМЕТНЫЙ РАСЧЕТ

№ 1-22-1

(локальная ресурсная смета)

н.а

ЧАСТИЧНИЙ БЕТОНИРОВАНИЕ КАНАЛА "КОРА"-2400 м

(наименование работ и затрат, наименование объекта)

н.п.	Шифр номера нормативов и коды ресурсов	Наименование работ и затрат	Единица измерения	Количество	в текущем (прогнозном)	
					на ед.изм.	общая
1	2	3	4	5	8	9

ТРУДОВЫЕ РЕСУРСЫ

